

**TIBBIYOTDA LIMONO'TINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI****Qoraboyeva Marjona Panji qizi, Ro'ziyeva Gulsara Temirqulovna****Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti, Termiz sh, Farovon massivi 4B-****uy, e-mail: esadir_74@rambler.ru****Annotatsiya**

Bugungi kunga kelib dorivor o'simliklar yetishtirish va katta iqtisodiy foyda olish keng tarqalib bormoqda. Shu qatorda limono't yetishtirish ham tibbiy, ham iqtisodiy ahamiyati yuqori sanaladi. Shu asosda limono'tning keng tarqalgan oddiy yetishtirish usuli asosida o'rganildi. Mavjud texnologiyalar asosida sifati yuqori limono't olinganda undan keluvchi katta iqtisodiy daromadni ham olishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: limono't, vegetativ, dorivor, o'gitlash, yetishtirish, daromad.

ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА ЛИМОНА В МЕДИЦИНЕ**Карабаева Марджона Панджи кизи, Рузиева Гульсара Темиркуловна.**

Термезский университет экономики и сервиса, г. Термез, Фаровонский массив, 4Б, e-mail: esadir_74@rambler.ru

Аннотация

Выращивание лекарственных растений и получение больших экономических выгод сегодня получает широкое распространение. Кроме того, выращивание лимона имеет большое медицинское и экономическое значение. На этой основе был изучен распространенный и простой способ выращивания лимонграсса. На основе существующих технологий мы можем получить большой экономический доход от лимонов высокого качества.

Ключевые слова: лимон, вегетативный, лекарственный, удобрение, выращивание, доход.

MEDICAL AND ECONOMIC BENEFITS OF LEMON

Abstract: To date, the cultivation of medicinal plants and obtaining great economic benefits is becoming more widespread. In addition, the cultivation of lemons is of great medical and economic importance. On this basis it was studied on the basis






of a common simple cultivation method of lemon. We can also reap huge economic benefits from high-quality lemons based on existing technologies.

Key words: lemon, vegetative, medicinal, fertilize, cultivation, economic income.

Kirish. Melissa-ko'p yillik o'tlar guruhi, Lamiaceae turkumiga mansub o'simlik. Limon o'ti o'simligi bir nechta nomga ega. U limon o'ti yoki limon yalpizi deb ham ataladi. Melissa – shifobaxsh o'simlik bo'lib asosan bu o'simlik uyqusizlikni, nevroz va shu kabi nerv sistemasidagi turli xil kasalliklarni davolash uchun ishlatilgan, vazn yo'qotish uchun ba'zi retseptlarda ichimliklarga qo'shiladi. Ular ushbu doridarmonlarni infuziyalar, damlamalar shaklida qabul qiladilar, vannalar, choyga o't qo'shadilar va kosmetologiyada ular teriga shifobaxsh ta'sir ko'rsatadigan limon balzamining efir moyini tez-tez ishlatib turishadi. Melissa ko'pincha ushbu oilaning boshqa yaqin o'simliklari - mushnip va moldavan ilon po'chog'I bilan chalkashadi. Melissa ko'pincha yalpiz deb ataladi, bu noto'g'ri, chunki yalpiz o'simliklarning alohida jinsini anglatadi. Dorivor limono't ikki mingyil avval O'rta yer dengizi, Qora dengiz va kichik Osiyo hamda Shimoliy Amerika mamlakatlarida madaniylashtirilgan. O'simlikning asl vatani Markaziy va Janubiy Yevropa, Balkon, Eron, Shimoliy Afrika, Shimoliy Amerika hamda

Ukraina, Kavkaz va O'rta Osiyo hisoblanadi. Dorivor limono'tning namlik ko'p miqdorda bo'lgan mintaqalarida shuningdek, hattoki mayda shag'alli va mayda toshli tuproqlarda o'sa olmaydi. O'zbekistonning Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi Limon balzami deb ham ataluvchi Vatani O'rta yer dengizidir O'simlik ilk bora madaniylashtirilgan holda bir necha ming yil oldingi qadimgi Rimda yetishtiriladi va u yerdan butun Yevropaga tarqaladi. Ilk marotaba bu o'simlik O'rta yer dengizi mamlakatlarida o'simlik begona o't deb hisoblanadi. Soyali butalar, o'rmonzorlar, toshloq va o'tloqlar, o'rmon o'tloqlari, daryo bo'ylari, yo'l bo'yidagi nam joylarda, o't o'sa oladigan joylarda keng tarqalgan. Kavkaz, Qrim, O'rta Osiyo, Ukraina, Rossiya mamlakatlar bugungi kunda limon balzamining keng miqyosda madaniy holda o'stiriladi va yovvoyi tabiatda Shimoliy Amerika va Janubiy Yevropa mamlakatlarida uchraydi. Dorivor limono't ikki mingyil avval O'rta yer dengizi, Qora dengiz va kichik Osiyo hamda Shimoliy Amerika mamlakatlarida madaniylashtirilgan. O'simlikning asl vatani Markaziy va Janubiy Yevropa, Balkon, Eron, Shimoliy Afrika, Shimoliy Amerika hamda. Dorivor limono't ikki mingyil avval O'rta yer






dengizi, Qora dengiz va kichik Osiyo hamda Shimoliy Amerika mamlakatlarida madaniylashtirilgan. O'simlikning asl vatani Markaziy va Janubiy Yevropa, Balkon, Eron, Shimoliy Afrika, Shimoliy Amerika hamda Ukraina, Kavkaz va O'rta Osiyo hisoblanadi. Dorivor limono'tning namlik ko'p miqdorda bo'lgan mintaqalarida shuningdek, hattoki mayda shag'alli va mayda toshli tuproqlarda o'sa olmaydi. O'zbekistonning Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi .

Yasnotkaguldoshlar oilasiga mansub, ko'p yillik, sertukli. Bo'yi 30-60 sm li ildizpoyali bo'lib, tarmoqlangan holda uchraydi. Poyalari tik o'suvchi, to'rt qirralari, shoxlangan va bo'yi 80-100 cm ga boradi. Barglari bandli, tuxumsimon chetlari arrasimon qirrilgan. Gullari hayotining ikkinchi yilida, yoz davri o'rtalarida gullaydi. mayda, oq sarg'ish yoki pushti, barg qo'ltiqlarida 3-10 tadan soxta mutovkalarga yig'iladi. Mevasi yong'oqcha, jigarrang yoki to'q jigarrang. 1000 dona urug'ining vazni 0,5-0,7 g ga teng. Limon maysasi tik tarvaqaylab ketgan tetrahedral poxol bilan qoplangan, petiolate qarama-q arshi va yuraksimon qo'pol barglari mayin tuklar bilan qoplangan, mayda, qisqa pedikellarda, och pushti yoki oq gullarda joylashgan. Melissa hayotining ikkinchi yilida, yoz davri o'rtalarida gullaydi. O'simlik mevalari to'rtta jigarrang ovoid yong'oqdan iborat. O'simlikning tetrahedral kurtaklar qisqa va mayin tuklar bilan qoplangan. Limono'tning kimyoviy tarkibi. Yer ustki qismi tarkibida 0,01-0,03% efir moyi, C vitamini, karotin, fenilkarbon kislotar (kofe, xlorogen, rozmorin, ferul, prokotex va boshqalar) triterpenlar, flavonoidlar (lyuteolin-7 - glikozid va boshqalar) 5-10 % oshlovchi va boshqa moddalar, urug'ida 20-27% yog' bor. Limono'tning efir moyi geraniol, neral va boshqa terpenlardan tashkil topgan.

Kimyoviy tarkibi Barglarida 0,33 % gacha efir moyi, karotin va askorbin kislotasi bor. Urug'i tarkibida esa 20 % gacha yog' bor. Bundan tashqari poyasida va barglari tarkibida limon kislotasi ham mavjud va shu orqali limon hidiga o'xshash hid tarqatadi. Limon o'ti foydali va shifobaxsh xususiyatlar

ombori. Va bularning barchasi uning tarkibiga bog'liq. O'simlik tarkibida sezilarli miqdor mavjud:

1. Efir moylari;
2. Triterpen birikmalari (tsitral, sitronella);
3. Monoterpen aralashmalari (linalool, setronellol, geraniol);
4. Karotin;
5. Askorbin kislotasi;





6. Shilliq moddalar;
7. Taninlar;
8. Qahva, bibayariya, oleic, ursolik kislotalar;
9. Achchiq moddalar;
10. Flavonoidlar;
11. Yog'li moddalar;
12. Makro- va mikroelementlar: kalsiy, kaliy, temir, marganes, rux, xrom, mis, molibden, nikel, vanadiy.

Boy tarkibiy qism o'simliklarga shifobaxsh xususiyatlarning butun arsenalini beradi. Melissa antispazmodik, tinchlantiruvchi, gipnotik, karminativ, xoleretik, gipoglikemik, bog'lovchi, antikonvulsan, ekspektoran, tonik, yallig'lanishga qarshi ta'sirlarga ega. Bundan tashqari limon yalpiziga asoslangan preparatlar:

Tuyadi oshishi, me'da shirasining sekretsiasini rag'batlantirish, fermentatsiya anomaliyalarini yo'q qilish, oshqozon harakatining kuchayishi, yurak urushini kamaytirish, halitozni yo'q qilish, qon bosimini pasaytirish, qalqonsimon bezning hujayra ichidagi funksiyasini faollashtirish, hayz davrining normalizatsiyasi kabi kasalliklarga qarshi dori-darmon tayyorlashda ishlatiladi. Eng keng qamrovli dorivor o'simlik sifatida limon o'ti oz bo'lsada boshqa kasalliklarga qarshi dori sifatida foydalaniladi. Bundan tashqari limono't tarkibida C, B vitaminlari va A provitaminlari ham mavjud.

Farmasevtika sanoatida bu o'simlikning ahamiyati yuqoriligi sababli uning turli mamlakatlarda limon balzamini yetishtirish texnologiyalari mavjud. Urug'idan yoki vegetative yo'l bilan ko'payadi. Limono't namsevar o'simlik sanaladi. Asosiy yer haydash kuzda 25 cm chuqurlikda olib boriladi. Asosiy shudgorlash oldidan bir ikki marta provakatsion sug'orish o'tkaziladi. Bunda begona o'tlarning urug'lari va maysalari boronalash bilan yo'qotiladi. Haydashdan oldin yerga gektariga 30 tonna go'ng solinadi. Ekishdan oldin maydonni diskli agregatlar bilan 68 cm chuqurlikda boronlanadi va mola bostiriladi. Ekish sabzavot ekish moslamalarida egat oralarini 70 cm qilib ekiladi.


Ekish normasi gektariga 6 kg. Ekish chuqurligi 2-3 cm. Bir tekis ekilishi uchun urug'lari granullangan superfosfat bilan gektariga 60 kg hisobida aralashtiriladi. Urug'lari unguncha tuproq nam holatda bo'lishi kerak. 4 ta chin barg chiqargandan keyin yagana qilinadi. O'suv davrida azot, fosfor va kaliy o'g'itlari bilan oziqlantiriladi. o'suv davrida 10-12 marta sug'oriladi. Birinchi va





ikkinchi yillari gektariga 100 kilogramm azot, 80 kilogramm fosfor va 50 kilogramm kaliy o'g'iti bilan oziqlantiriladi. Limono'tning xomashyosi nozik bo'lgani uchun ehtiyotkorlik bilan yig'iladi. Har gektar maydondan o'rtacha 1200 kg barg yig'ib olish mumkin. Tajribadan shu narsa ma'lum bo'ldiki, limono't ekilgan maydonlardan 5 yilgacha foydalanish mumkin. Bundan tashqari ikkinchi yildan boshlab vegetativ yo'l bilan ham boshqa yerlarga ko'paytirish mumkin.

Xulosa. Yerning ishlov berilishidan urug'larning ekilishi hamda o'g'itlash jarayonlari harajatlari o'rtacha 1 gektar maydonga 1mln 600 ming so'mni tashkil etadi. 1 gektardan olingan o'rtacha hosil 1200 kg ni bersa, mahalliy o'zimizning ichki bozorlarda narx 1 kg limon balzami narxi 8 ming so'm hisobida o'rtacha 10 mln foyda olish mumkin. Ammo chet el bozorlariga ayniqsa, Yevropa bozorlariga sotiladigan bo'lsa sof foyda 50 mln olish mumkin. Bu eng katta foyda sanaladi. Jahon bozorida 1 kg bargning o'rtacha narxi 4-5 \$ atrofida bo'lib, urug'I esa 1 kg 6-7 \$ ni tashkil etadi. 1 gektar yer maydonidan o'rtacha 60 kg urug' olinsa, urug'idan olinadigan daromad ham 3 mln 500 ming so'm qo'shimcha olish mumkin ekan. Demak bargidan olinadigan sof foyda 50 mln va urug'idan olinadigan sof foyda esa 3 mln 500 ming so'm daromad bo'lsa bu eng katta foyda sanaladi. Yevropa iqtisodiyotida dorivor o'simliklar asosida foyda olish muhim tarmoqlaridan biri sanaladi. Bundan tashqari limono'tning 5 yil davomida hosil berishi hamda sovuq haroratda ham o'sish xususiyatiga egaligi vegetative yo'l bilan yanada ekin yerlarining ko'paytirilishi iqtisodiy foyda miqdorini oshiradi. 5 yil davomida 1 gektar yerdan vegetativ ko'payishdan tashqari 300 mln foyda sarflangan barcha harajatlardan tashqari qoluvchi sof foyda 250 mln ni tashkil etadi. Hozirgi kunda limono't xom ashyosiga hamda undan yaratilgan mahsulotga ehtiyoj oshib bormoqda. Limono't xom ashyosini tayyorlash va uni oziq-ovqat va farmasevtika sanoatining kerakli tarmoqlariga yetkazib berish bilan O'zbekiston O'rmon xo'jaligi ministrilgining tashkilotlari mashg'uldirlar. Bugungi kunda mamlakatimizda adirli va yaylovli to'qay yerlari ko'p ekanligi hamda o'simliklarning yetishtirish uchun ortiqcha namlik borligi sababli bu yerlarda limono'tni bemalol ekib ko'paytirish mumkin. O'zlastirilmagan yerlar hisobidan katta miqdorda iqtisodiy foyda olish sharoiti mavjud. Bu nafaqat daromad balki, mamlakatimizda farmasevtika yo'nalishi taraqqiyotiga katta hissalaridan biri bo'ladi.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'. Pratorov, Q. Jumayev. Yuksak o'simliklar sistemikasi. Toshkent - 2003
2. Q. Xaydarov, Q. Hojimatov. O'zbekiston o'simliklari. Toshkent "O'qituvchi" 1992
3. Q. Hojimatov, M. Olloyorov. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari va ularni muhofaza etish. Toshkent 1998 yil.
4. Toshkent Davlat Agrar Universiteti. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent "Iqtisod-moliya"2018.

